

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY SHAKLLANTIRISH

Usmonov Azizbek Azamatovich

BuxDPI Musiqi ta’limi yo’nalishi

1 bosqich talabasi

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

BuxDPI “Musiqi va tasviriy san’at” kafedrası dotsenti(PhD)

Annotasiya: *Ushbu maqolada ozbek xalq qoshiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashidagi orni va ma’naviy-axloqiy shakllantirishi haqida bayon etilgan. Xalq qo’shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta’sir eta olish xususiyatiga ega bolib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir.*

Tayanch soʻzlar: *xalq qo’shiqlari, madaniyat, submadaniyat, musiqa, qo’shiq, hissiyot, ma’naviyat, axloqiy madaniyat, san’at, adabiyot, bola, mahorat*

Аннотация: *В статье рассматриваются роль народных песен в воспитании молодежи. Знакомство со своей национальной культурой. Обсуждаются структура личности, место детского фольклора у младших школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграции нравственных качеств.*

Ключевые слова: *народные песни, культура, музыка, песня, субкультура, чувство, интеллект, арт, литература, дитя, способность.*

Annotation: *The article discusses the role of folk songs in the education of young people. Getting to know your national culture. The structure of personality, the place of children's folklore among younger schoolchildren, purposeful pedagogical processes of formation and integration of moral qualities are discussed.*

Keywords: *folk songs, culture, music, song, subculture, feeling, intelligence, art, literature, child, ability.*

Qo’shiqchilik san’ati o’sib ulg’ayib kelayotgan yosh avlodnining musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Qo’shiq- sehrli sadolardan uyushgan mo’jizalar dunyosi. U insonning eng birinchi san’ati, o’zini o’ragan dunyoga ilk munosabati. Inson dunyoga kelib, ko’z ocharkan, onaning ilk allasi bilan shu dunyo ohanglari olamiga kirib boradi va umrbod u bilan nafas oladi. Xoh alladir, xoh yalladir, lapardir, o’landir, yor-yordir—agar u chinakam san’at asari bo’lsa, unda inson degan buyuk zot, uning boy ma’naviy olami Vatanga muhabbati sadoqati, kayfiyati, taraqqiyot darajasi o’ziga xos tarzda nafosat bilan aks etadi.

Musiqiy san'at insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy, ma'naviy-axloqiy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi bo'lib keladi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Shuningdek, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy estetik tarbiyasining muhim vositasi hisoblanadi.

Yoshlarni tarbiyalashda ayniqsa xalq yo'lida yaratilgan qo'shiqlar yoshlar ongini ezgulikka to'ldiradi. Bundayin tarbiya uslubi orqali yoshlar xarakterlanib boradi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali qo'shiqlar mazmunidagi axloq-odob, pand-nasihat, vatanga, xalqqa muhabbat, millatimizga xos bo'lgan hayo, ibo, andishalik, muomala madaniyatiga oid insoniylik fazilatlarini singdirib borishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning xalq musiqa ijodiga bo'lgan qiziqishini, muhabbatini vamehrini yanada orttirish uchun o'qituvchi quyidagi fikr va tavsiyalarga e'tibor bersa, jumladan:

- o'zbek xalq musiqa ijodi turli ifoda vositalariga boy bo'lib, xalqimizning milliy g'urur va iftixori ekanligi to'g'risida;

- asrlar davomida xalqimizning yashashida, mehnatida tuy-tomoshalarida, sayllarda va quvonchli kunlarida, xamda ijodida asosiy omil bo'lib xizmat qilganligi;

- xalq qo'shiqlarida xalqning boshidan kechirgan tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumotlar berilgandagina, dars samaradorligi ancha yuqori saviyada bo'ladi. O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari shunchalar xilma-xilki, ular orqali bolalarni ma'naviy va axloqiy dunyosini har tomonlama o'stirish, oliyanob fazilatlarini kamol toptirish mumkin. Bunday asarlarga misol qilib, "Alla", lapar, lirik termalar, bolalar qo'shiqlari, "Yomg'ir yog'oloq", "Lolacha", "Boychechak", "Laylak keldi", "Sust xotin", "Lola", mehnat qo'shiqlari, katta ashula, lirik, epic qo'shiqlar, mumtoz asarlarni aytib o'tish mumkin¹. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsliklariga kiritilgan ushbu qo'shiqlar o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarimizdan foydalanishning muhim ahamiyati shundaki, avvalo asrlar bo'yi yaratilgan milliy qo'shiqlarining insonlarga kuchli ta'siri yuksakligidadir. Biroq

1. ¹ Nurullayev F.G. "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari (5-7-sinflar misolida)" - (PhD) diiss.ishi BuxDU.2021y.

bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbonsa tus bermoqdalar.. An'analarga sodiqlik tushunchalarini yoshlar ongiga sindirib borishda ularni g'arbliklarga taqlid qilib kuylashni emas, balki milliy kuy va qo'shiqlarini tinglashni, o'zlariga tarbiyaviy saboq chiqarish lozimligini o'rgatish zarur.

Ayniqsa, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib, milliy ohanglarni, xalq qo'shiqlarini his eta bilishni shakllantirish lozim. Insonning qaysi millatga mansubligi faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Yigit-qizlarni aqliy-axloqiy, madaniy-ma'naviy jihatdan tayyorlamasdan mamlakatimiz ma'naviyatini rivojlantira olmaymiz. Shunday ekan, ularni ma'naviy barkamolikka erishishlarida milliy musiqamizning kuch-qudratiga tayangan xolda ibratli pand-nasihatga boy, xalqona yaratilgan kuy va qo'shiqlaridan foydalanishimiz zarur. Har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Demak, axloqiy tarbiyaning xalq qo'shig'i shaklidagi birinchi omili-bu ona allasidir. Ayniqsa, o'zbek onalarining allasi ma'naviy-ruhiy jihatidan o'ta ta'sirchan vositadir. Inson ulg'aya borgan sari uning g'oyaviy, axloqiy va madaniy saviyasi shakllanishiga imkon oshib boradi. Estetik saviyani shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlari bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar bu ishni umumlashgan holda olib borilishi zarurligini unutmasliklari kerak. Bu ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya bilan shug'ullanadigan pedagog o'qituvchilarga taalluqlidir. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida tarbiyalash bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Bizningcha, badiiiy havaskorlik, ashula darslariga jalb etilgan o'quvchi yoshlar bilan bu borada ish olib borishda avvalo quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim:

1. O'zbek xalq qo'shiqlari va kuylari yoshlarning ma'naviy olamiga emotsional ta'sir ko'rsatishi va bu borada etarlicha samara berishiga erishish.

2. San'at bilan voqelikning ijtimoiy roli va ahamiyatini ta'kidlagan holda ularning sertarmoq turlarida folklor qo'shiqlarining o'rnini, badiiy qimmatini, umum madaniyatimizdagi mohiyatini to'g'ri anglab olishga ko'maklashish.

3. O'quvchilarda san'atga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda bu boradagi engil-elpi, mazmunan sayoz, ta'sirsiz va chet el ohanglariga solib aytilgan, o'zbek musiqa madaniyati an'analarga zid bo'lgan qo'shiqlarga nisbatan murosasizlik tuyg'ularini hosil qilish.

4. O'quvchilarni xalq qo'shiqlarini ma'naviy-axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tomonidan to'g'ri baholay olish, ularni tarbiyaviy xususiyatlarini anglashga o'rgatish.

5. Maqsad xalq qo'shiqlari bilan ishlash bo'lsa-da, o'quvchilarda san'atning boshqa turlariga ham mehr-muhabbat uyg'otish, ularning umumiy madaniy saviyasini kengaytirish.

6. Xalq qo'shiqlaridagi nazmiy matnning mazmunini tarbiyaviylik nuqtai-nazaridan tahlil qilib uni talablar ongiga to'raligicha etkazish.

O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida yuqorida sanab o'tilgan pedagogik omillarni inobatga olish ko'zlangan maqsadgi erishishni kafolatlashi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. 1.X.Nurmatov."Музыка ва эстетик маданият-Тошкент.Т.Д.П.У.1995 йил
2. Nurullayev F.G. "Musiqi ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari(5-7-sinflar misolida)" -(PhD)diiss.ishi BuxDU.2021y
3. Asafyev B.V. On musical and creative skills in children //Selected articles on musical enlightenment and education. L., 1973. - pp. 91-95.
4. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
5. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
5. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
6. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
7. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
8. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy faoliyati. THE MULTIDISCIPLINARE JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, VOLUME-3, ISSUE-4, ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, SJIF 2022-2.889, 2023-5.384 ResearchBib IF: 8.848 / 2023, 14-19.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
10. Нуруллаев Ф.Г. Муסיқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. B.175-180.
11. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.

12. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139.
13. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Renabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
14. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
15. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
16. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 . Accepted 14 May2022.
17. 18.Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
18. 19.Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
19. 20.Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O'zbekiston Milliy Universiteti xabarleri, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
20. 21.Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
21. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
22. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612. Accepted 14 May2022.
23. 24.Nurillaev F.G. Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
24. 25.Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

25. 26.Nurillaev Farrukh Gaybullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (Scopus-Q3) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
26. 27.Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.
27. 28.Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.
28. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.